



OFFSHOR KOMPANIYALAR ISHTIROKIDAGI BITIMLARNING KOLLIZION MASALALARI

Ne'matillayev Islombek Xayrullo o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro tijorat huquqi fakulteti magistranti
Email: islombeknematullaev76@gmail.com

Annotatsiya

Global iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi offshor yurisdiktsiyalarda ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar ishtirokidagi bitimlarning ortishiga olib keldi. Bunday bitimlar xalqaro xususiy huquqda kollizion masalalarni, xususan qaysi davlat huquqini qo'llash, nizolarni qaysi yurisdiktsiyada ko'rib chiqish va shartnoma shaklining haqiqiylikini belgilashda murakkabliklar keltirib chiqaradi. Ushbu tezisda offshor kompaniyalar ishtirokidagi bitimlarga tomonlar erkinining avtonomligi tamoyilini qo'llanilishi, O'zbekiston va xalqaro huquq normalaridagi yondashuvlar, hamda amaliyotda uchraydigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Natijada, huquqiy xavfsizlikni ta'minlash uchun offshor kompaniyalar bilan tuziladigan bitimlarda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: offshor kompaniya, xalqaro xususiy huquq, kollizion norma, qo'llaniladigan huquqni tanlash, shartnoma erkinligi, huquqiy layoqat, yurisdiktsiya.

Аннотация

Углубление глобальных экономических процессов способствовало увеличению количества сделок с участием оффшорных компаний. Эти сделки вызывают сложные коллизионные вопросы в международном частном праве, включая выбор применимого права, определение компетентного суда и проверку юридической действительности договоров. В работе анализируются принципы выбора права, подходы законодательства Узбекистана и международных актов, а также практические проблемы, возникающие при заключении сделок с оффшорными структурами. Делается вывод о



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

необходимости повышенного внимания и юридической осторожности при работе с такими компаниями.

Ключевые слова: оффшорная компания, международное частное право, коллизионные нормы, выбор права, автономия воли сторон, юридическая дееспособность, юрисдикция.

Abstract

The growing complexity of global economic relations has led to an increase in transactions involving offshore companies, raising significant conflict-of-law issues in private international law. These include determining applicable law, competent jurisdiction, and contractual validity. This thesis analyzes the legal principles governing law selection in contracts, compares Uzbek and international legal frameworks, and identifies practical challenges in dealings with offshore entities. It concludes that ensuring legal clarity and minimizing risk require cautious and well-informed approaches when contracting with offshore companies.

Keywords: offshore company, private international law, conflict of laws, choice of law, party autonomy, legal capacity, jurisdiction.

Kirish

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning jadallashuvi natijasida xalqaro savdo, investitsiyalar, moliyaviy xizmatlar va intellektual mulk sohalarida offshor yurisdiksiyalarda ro'yxatdan o'tgan offshor kompaniyalarning jahon bozoridagi ishtiroki ortib bormoqda. Buning natijasida esa chet el elementi bilan murakkablashgan fuqaroviy huquqiy munosabatlar vujudga kelmoqda.

Birinchi navbatda offshor kompaniyalar nima va umuman ushbu turdagi kompaniyalar qolgan yuridik shaxslardan nimasi bilan ajralib turadi degan savollarga javob berish uchun uning ta'rifiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak. Offshor kompaniya - bu asosiy faoliyatini o'zi ro'yxatdan o'tgan (yurisdiksiya) davlatdan tashqarida olib boradigan, ko'pincha soliqqa tortish imtiyozlari, yengillashtirilgan



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

huquqiy tartib va maxfiylik darajasining yuqoriligi bilan ajralib turuvchi yuridik shaxsdir¹. Offshor kompaniyalar odatda quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- ro'yxatdan o'tgan davlatda tijorat faoliyatini yuritmaydi, faqat boshqa davlatlar bilan bitimlar tuzadi yoki xizmatlar ko'rsatadi;
- minimal soliqqa tortiladi yoki umuman soliqlardan ozod qilinadi (zero-tax jurisdictions);
- boshqaruv organlari ham offshor yurisdiksiyadan tashqarida faoliyat yuritadi;
- haqiqiy egalar (beneficiarlari) ko'pincha maxfiy saqlanadi;
- offshor hududlar ko'pincha tez ro'yxatdan o'tish, anonimlik va soddalashtirilgan hisobot talablarini taklif qiladi.

Offshor kompaniyalarni tashkil etishning eng asosiy sabablaridan biri soliq yukini optimallashtirish hisoblanadi. Ya'ni, korxona yoki investorlar soliqlarni kamaytirish yoki butunlay undan ozod bo'lish maqsadida qulay soliq rejimiga ega yurisdiksiyalarda offshor kompaniya tashkil etishadi. Bundan tashqari, maxfiylik darajasining yuqoriligi ham muhim omil bo'lib, ko'plab offshor yurisdiksiyalar kompaniya egalarining (benefitsiarlarining) shaxsini oshkor qilmaslikni ta'minlaydi. Ya'ni offshor hududlarda ma'lumotlar mahfiyligi yuqori darajada bo'lib, investorlar va kompaniya manfaatlari qonunchilik asosida muhofaza qilish imkoniyati yaratilgan. Offshor kompaniyalar shuningdek moliyaviy tranzaksiyalarni erkin amalga oshirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi sababi ko'plab offshor hududlarda rivojlangan davlatlar singari valyuta nazorati mavjud emas.

Offshor kompaniyalarning bir nechta huquqiy shakllarda tashkil etilishi mumkin. Ularning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- international business company (ibc) – eng keng tarqalgan offshor yuridik shakl bo'lib, ko'plab yurisdiksiyalarda mavjud (masalan, Seyshel orollari, BVI).
- limited liability company (llc) – Anglo-sakson huquq tizimida keng qo'llaniladigan shakl hisoblanadi.
- private limited company (ltd) – Ba'zi bir yurisdiksiyalarda foydalaniladi, ko'pincha holding yoki intellektual mulk egaligi uchun qo'llanadi.

¹ Corporate Finance Institute. (2025). Offshore company. Corporate Finance Institute
<https://corporatefinanceinstitute.com/resources/accounting/offshore-company/>



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

- trustlar va fonlar (trusts & foundations) – mulkni boshqarish, vorislik va aktivlarni himoya qilish maqsadida ishlatiladi².

Shu nuqtai nazardan, offshor kompaniyalar ishtirokidagi bitimlar faqat iqtisodiy emas, balki murakkab huquqiy muammolarni ham yuzaga keltiradi. Ayniqsa, ularning turli yurisdiksiyalarda tashkil topganligi sababli, bitimlarga nisbatan qanday huquq qo'llanilishi, nizolarni qaysi sud ko'rib chiqishi, shuningdek, bitimlarning shakli va mazmuni qaysi davlat qonunchiligiga mos bo'lishi kerakligi xalqaro xususiy huquqning asosiy masalalaridan biriga aylanadi. Shu bois, ushbu tezisda offshor kompaniyalar ishtirokidagi bitimlarning kollizion-huquqiy asoslari, taraflarning kelishuviga ko'ra huquqni tanlash mezonlari, shuningdek, amaliyotdagi mavjud muammolar va ularning yechimiga doir yondashuvlar tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Offshor kompaniyalar ishtirokidagi bitimlarning kollizion masalalariga to'xtalishdan avval "bitim" va "kolliziya" nima ekanligiga aniqlik kiritib olishimiz muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 101-moddasiga muvofiq "bitimlar deb fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlariga aytiladi"³. Ya'ni bitim — bu ikki yoki undan ortiq tomonning o'zaro huquqiy munosabatlarga kirishish borasidagi ixtiyoriy va ongli ravishda tuzilgan kelishuvdir. Endi esa "kolliziya" tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu atama xalqaro xususiy huquqda ikki yoki undan ortiq davlatlarning huquqiy tizimlari o'rtasida yuzaga keladigan normativ to'qnashuv holatini anglatadi⁴.

Umuman olganda O'zbekiston qonunchiligida "offshor kompaniya" tushunchasining alohida ta'rif mavjud emas, biroq bunday shaxslar bilan tuziladigan bitimlar chet el elementi mavjud bo'lgan huquqiy munosabatlar sifatida baholanadi. Shuning uchun offshor kompaniyalar shunchaki chet el yuridik shaxs sifatida ko'riladi. Shu bilan birga, 1177-moddaga asosan, O'zbekiston hududida xorijiy yuridik shaxslar, agar maxsus qonunlarda boshqacha tartib nazarda

² Гетьман-Павлова, И. В. (2011). Международное частное право: Учебник (3-е изд., перер. и доп.).

³ O'zbekiston Respublika Fuqarolik Kodeksi Birinchi Qism. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi, <https://lex.uz/docs/-111189#-153452>

⁴ O. T. Hazratqulov. (2024). Xalqaro Xususiy Huquqda Kollizion Normalar. O'quv Qo'llanma.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

tutilmagan bo'lsa, fuqarolik qonunchiligi doirasida milliy rezidentlar bilan teng asosda tadbirkorlik va boshqa faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega. Bundan kelib chiqadigi offshor kompaniyalarning faoliyati O'zbekistonda cheklanmagan.

Kollizion normalar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining VI bo'nazarda tutilgan bo'lib unga ko'ra shartnomalarga tomonlar tanlagan huquq qo'llaniladi (1189-modda)⁵. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak ushbu yondashuv xalqaro xususiy huquqda tomonlar erkinligining avtonomligi tamoyili deb nomlanadi va bu prinsipga ko'ra shartnoma ishtirokchilariga o'zaro kelishuv asosida shartnomaga tatbiq etiladigan huquqni erkin tanlash huquqini beradi. Shartnoma chet el elementi bilan bog'liq bo'lgan hollarda, tomonlar o'z xohishlariga ko'ra qaysi davlatning huquqini qo'llashni belgilashlari mumkin.

Bu tamoyil quyidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan:

- Gaaga prinsiplari (2015) – bu prinsiplar xalqaro tijorat shartnomalari bo'yicha huquq tanlash erkinligini mustahkamlaydi va hatto milliy huquqni emas, balki transmilliy huquq manbalarini (masalan, UNIDROIT prinsiplari) tanlash imkonini ham tan oladi.
- “Rome I” reglamenti (Evropa Ittifoqi): 3-moddaga ko'ra, tomonlar istalgan davlatning huquqini tanlashi mumkin, hatto u davlat Yevropa Ittifoqi a'zosi bo'lmasa ham.
- UNIDROIT Principles of International Commercial Contracts: ushbu prinsiplarda tomonlar tanlov erkinligi asosiy huquq sifatida e'tirof etiladi.

Lekin aytaylik tomonlar tomonidan qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq tanlanmagan bo'lsa u holda Fuqarolik kodeksining 1190 moddasiga ko'ra shartnomaga nisbatan:

- oldi-sotdi shartnomasida — sotuvchi;
- hadya shartnomasida — hadya qiluvchi;
- ijara (mulk ijarasi) shartnomasida — ijaraga beruvchi;
- mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasida — ssuda beruvchi;
- pudrat shartnomasida — pudratchi;
- yo'lovchi, bagaj va yuk tashish shartnomasida — tashuvchi;

⁵ O'zbekiston Respublika Fuqarolik Kodeksi Ikkinchi Qism. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi, <https://lex.uz/docs/-180552#-199574>



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

- transport ekspeditsiyasi shartnomasida — ekspeditor;
- qarz shartnomasida yoki boshqa kredit shartnomasida — kreditor;
- topshiriq shartnomasida — ishonchli vakil;
- vositachilik shartnomasida — vositachi;
- omonat saqlash shartnomasida — saqllovchi;
- sugʻurta shartnomasida — sugʻurtalovchi;
- kafillik shartnomasida — kafil;
- garov toʻgʻrisidagi shartnomada — garovga qoʻyuvchi;

mamlakat huquqi qoʻllaniladi. Lekin bunda koʻrsatib oʻtilmagan shartnomalarga nisabat tomonlarning tomonidan qoʻllanilishi lozim boʻlgan huquq tanlanmagan boʻlsa u holda ushbu shartnomani mohiyatini belgilovchi asosiy majburiyatni bajarayotgan shaxs tashkil etilgan, doimiy yashash joyi yoki asosiy faoliyat yuritadigan davlat huquqi qoʻllaniladi. Masalan agar tomonlar qoʻllanilishi lozim boʻlgan huquq tanlanmagan boʻlsa oldi-sotdi shartnomasi sotuvchining roʻyxatdan oʻtgan davlati huquqi bilan tartibga solinadi. Shunday qilib, agar sotuvchi — offshor (chet el) kompaniya boʻlsa, offshor yurisdiksiyasining huquqi qoʻllaniladi, agarda sotuvchi — Oʻzbekiston yuridik shaxsi boʻlsa, unda Oʻzbekiston huquqi tatbiq etiladi.

Amaliyotda offshor kompaniyalar ishtirok etgan bitimlarda koʻproq offshor hududlarning huquqini tanlaydilar. Bunda Singapur, Shveytsariya, Irlandiya, Luxenburg kabi mamlakatlarning huquqini tanlash holati koʻp uchraydi. Buning asosiy sababi ushbu davlatlar ham “mid-shore” turiga kiruvchi offshor hudud hisoblangani uchun offshor kompaniyalar oʻzlariga offshor tanish va ishonchli yurisdiksiyalar huquqini qoʻllashni afzal koʻradilar. Shu oʻrinda offshor hududlarning turlariga ham bir oz toʻxtaladigan boʻlsak. Offshor hududlar asosan ikki turga boʻlinadi: klassik (yoki anʼanaviy) offshor hududlar va mid-shore (yoki yarim-offshor, gibrid) yurisdiksiyalar.

Klassik offshor hududlar — bu soliqlardan toʻliq yoki deyarli toʻliq ozodlik, minimal yuridik talablar va yuqori darajadagi maxfiylikni taʼminlaydigan yurisdiksiyalar boʻlib, ular koʻpincha shaffoflik va moliyaviy monitoring talablariga javob bermaydi. Bunday yurisdiksiyalar roʻyxatiga Britaniya Virgin orollari, Belize, Kayman orollari, Seyshel orollari, Panama va shu kabilar kiradi va odatda “soliq



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

boshpanasi” (tax haven) sifatida tanilgan va xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan yuqori xavfli hududlar qatoriga kiritiladi.

Mid-shore yurisdiksiyalar esa, yuqorida ta’kidlanganidek, an’anaviy offshor hududlar bilan taqqoslaganda ko‘proq nazorat va muvofiqlikni (compliance) ta’minlaydi. Ular soliq imtiyozlarini taklif qilgan holda, xalqaro standartlarga, jumladan FATF, OECD va BEPS talablariga rioya qiladi. Bunday yurisdiksiyalar o‘zining moliyaviy barqarorligi, huquqiy tizimi, xalqaro reytingi va ikki tomonlama soliq shartnomalari (DTT) bilan ajralib turadi.

Masalani yana bir boshqa tomoni ya’ni offshor kompaniyalar bilan tuzilgan shartnomalarning haqiqiylikiga oid muammolarni tahlil qilish ham juda muhim. O‘zbekiston Fuqarolik kodeksining 113–128-moddalari doirasida bitimlar haqiqiy emas deb topilishi mumkin bo‘lgan asoslar aniq ko‘rsatilgan. Jumladan, agar offshor kompaniya bilan tuzilgan bitim huquq-tartibot yoki axloqiy asoslarga qarshi bo‘lsa (116-modda), yoki bu bitim manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiya, vakolatdan oshib ketish (126-modda) yoxud qalbaki bitim sifatida (124-modda) tuzilgan bo‘lsa, u holda u o‘z-o‘zidan yoki sud tartibida haqiqiy emas deb topiladi. Offshor yurisdiksiyalardagi kompaniyalarning shaxsini, vakolatlarini va huquqiy layoqatini aniqlashdagi qiyinchiliklar ham ushbu bitimlarni baholashda asosiy muammo bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, agar offshor kompaniya nomidan bitim tuzgan shaxsning vakolati ishonchnoma bilan yetarli darajada tasdiqlanmagan bo‘lsa (132-modda), ushbu holat bitimning haqiqiylikini shubha ostiga qo‘yadi. Shuningdek, offshor kompaniya tomonidan tuzilgan bitim O‘zbekiston qonunchiligi talab qilgan shaklga (115-modda) rioya qilinmagan bo‘lsa, bitim faqat qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilangan hollarda haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bundan tashqari, offshor kompaniyalar orqali tuzilgan ayrim bitimlar yuridik shaxsning huquqiy layoqatidan chetga chiqqan holda amalga oshirilgan bo‘lishi ehtimoli mavjud bo‘lib (125-modda), bu esa ularni bekor qilishga asos bo‘lishi mumkin. Huquqiy amaliyotda ko‘pincha shartnomadagi biror moddaning haqiqiy emasligi butun shartnomani bekor qilishga olib keladimi degan savol ko‘tariladi. Bu borada 128-moddaga ko‘ra, bitimning faqat bir qismi haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, agar qolgan qismlar mustaqil ahamiyat kasb etsa, bitim butunlay emas, faqat ana shu qism bekor qilinadi. Shu jihatdan, offshor kompaniyalar bilan tuzilgan shartnomalarni huquqiy jihatdan



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

tekshirishda ushbu omillar chuqur tahlil qilinishi lozim, aks holda, ular orqali tuzilgan bitimlar keyinchalik yuridik kuchga ega bo'lmashligi mumkin.

Xulosa

Offshor kompaniyalar ishtirokidagi bitimlarning kollizion-huquqiy tahlili shuni ko'rsatadiki, bunday bitimlar ko'plab huquqiy noaniqlik va xavflarni o'z ichiga oladi. Turli yurisdiksiyalarda ro'yxatdan o'tgan va faoliyat yurituvchi offshor kompaniyalar bilan tuzilgan bitimlarga nisbatan qaysi davlat huquqi tatbiq etilishi, nizolar qaysi sudda ko'rib chiqilishi va bitimlarning haqiqiyligi qanday baholanishi – xalqaro xususiy huquq doirasida muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston qonunchiligi ham ushbu munosabatlarni tartibga solishda umumiy tanlov erkinligi tamoyiliga asoslanadi va tomonlarga huquq tanlash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, huquq tanlanmagan holatlarda ham Fuqarolik kodeksidagi kollizion normalar asosida bitimga tatbiq etiladigan huquq aniqlanadi. Amaliyotda esa offshor kompaniyalar ushbu tamoyilni qaysidir ma'noda suistemol qilgan holda ko'pincha o'zlariga qulay bo'lgan – ishonchli va shaffoflik darajasi pastroq bo'lgan – yurisdiksiyalar huquqini tanlaydilar. Shuningdek, offshor kompaniyalar bilan tuzilgan bitimlarning haqiqiyligiga oid muammolar, xususan vakolat masalalari, shartnoma shakliga rioya qilinmasligi yoki yuridik layoqatning cheklanishi kabi omillar ushbu bitimlarni yuridik kuchdan mahrum etish xavfini tug'diradi. Shunday ekan, offshor kompaniyalar bilan bitim tuzishda nafaqat iqtisodiy manfaatlar, balki huquqiy xavfsizlik va shaffoflik ham chuqur tahlil qilinishi zarur.

Natijada, offshor kompaniyalar ishtirokidagi bitimlarga doir kollizion-huquqiy yondashuvlar har bir holatda alohida baholanishi va ularga ehtiyotkorlik bilan yondashilishi kerak. Bu esa nafaqat milliy qonunchilikni, balki xalqaro huquqiy standartlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublika Fuqarolik Kodeksi Birinchi Qism. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi, <https://lex.uz/docs/-111189#-153452>
2. O'zbekiston Respublika Fuqarolik Kodeksi Ikkinchi Qism. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi, <https://lex.uz/docs/-180552#-199574>



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfservices.com

16th June, 2025

3. O. T. Hazratqulov. (2024). Xalqaro Xususiy Huquqda Kollizion Normalar. O'quv Qo'llanma.

4. Гетьман-Павлова, И. В. (2011). Международное частное право: Учебник (3-е изд., перер. и доп.).